

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TARBIYAVIY ISHLAR  
SAMARADORLIGINI OSHIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**

**Fayzullayeva Sevarabonu Nurullo qizi**

*Buxoro davlat universiteti Sport faolyati va pedagogika fakulteti pedagogika va psixologiya yo'nalishi 4-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolda Umumiy o'rta ta'lif maktablarida tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish mexanizmlari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** tarbiya, ma'naviy tarbiya, intellektual, qobiliyat, o'qituvchi, o'quvchi, metod, uslub, texnologiya, ta'lif

Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida amalga oshirilayotgan tub islohotlar qatori xalqimiz uchun milliy-ma'naviy, madaniy qadriyatlar, qadimiy urf-odat va an'analarni o'rganish hamda tiklash borasida keng imkoniyatlar ochib berildi.

Ta'lif sohasida amalga oshirilgan muhim tadbirlar qatorida mutaxassislarining yangi avlodini shakllantirish, ma'naviy – axloqiy jihatdan etuk, mustaqil dunyoqarashga ega, yangicha fikrlaydigan, mas'uliyatli, tashabbuskor, boy milliy meros, shuningdek, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatli barkamol shaxsni tarbiyalab, voyaga etkazish vazifalari belgilandi.

Bugungi globallashuv jarayonida ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish davr talabi hisoblanadi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning ta'kidlaganlaridek, "O'zbekistonda amalga oshirilayotgan e'tiborga molik ishlar, xususan, ilm-fan, ta'lif-tarbiya, madaniyat, san'at va adabiyot sohalarini izchil rivojlantirish, bozor iqtisodiyoti sharoitida ilm va ijod ahlini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kitobxonlik madaniyatini oshirish kabi vazifalar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangani" tahsinga sazovordir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 15-iyun kuni poytaxtimizda o'tkazilgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzuidagi anjumanda so'zlagan nutqida yosh avlod tarbiyasiga alohida e'tibor qaratdi.

"Bizni hamisha o'yantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim? – yoshlar. Mayli yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doim aks – sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimani hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan .

Mamlakatimizda tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish doirasida juda ko'p chora-tadbirlar olib borilmoqda jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limi" rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2022-yil 11-maydag'i PQ-241-sonli qarorida umumiy o'rta ta'lif muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va

sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalash maqsadida konsepsiya tasdiqlandi . Konsepsiyada quyidagi vazifalar belgilangan maktab ta’limini umummilliy harakatga aylantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni mazmunan yangi bosqichga ko‘tarish;



maktab o‘quvchilarining kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish, xalqimizning ma’naviy qudrati va milliy qadriyatlарини asrab-avaylash, ularga nisbatan faxr tuyg‘usini rivojlanтиш;



o‘sib kelayotgan yosh avlod ongida ma’naviy immunitetni mustahkamlash maqsadida buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma’naviy merosini chur o‘rganish, harbiy vatanparvarlik hamda buyuk ajdodlar jasoratini targ‘ib etish, o‘rganish, ularning sharaflı faoliyatini doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylantirish;



uzluksiz ta’lim tizimida ma’naviy tarbiya asoslarini kuchaytirish, Vatan taraqqiyotiga beqiyos hissa qo’shib kelayotgan zamonamiz qahramonlарining hayoti va faoliyatini ibrat timsoli sifatida yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib qilish;



o‘quvchilarni zamonaviy bilim va tajriba, milliy va umuminsoniy qadriyatlар asosida tarbiyalash jarayonida maktab, mahalla va oila hamkorligini mustahkamlash.

Maktab ta’limini umummilliy harakatga aylantirish, o‘quvchilarda kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish, buyuk ajdodlar jasorati hamda harbiy vatanparvarlik, maktab, mahalla va oila hamkorligini mustahkamlash kabi masalalar belgilab berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yilning mart oyida beshta muhim tashabbus ilgari surildi. Bu – yoshlarni madaniyat, san’at va sportga keng jalb etish, ularda zamonaviy axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, xotin-qizlar bandligini ta’minalash vazifalarini o‘z ichiga oladi. Turli ziddiyatlar kuchayib borayotgan bugungi dunyo manzaralarida yoshlarimizning ma’naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish har qachongidan ham dolzarbroq ekanini zamonning o‘zi ko‘rsatib turibdi. Shu bois prezident tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma’naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edilar. Bu besh tashabbus quyidagilarni o‘z ichiga oladi: Birinchi tashabbus yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Ikkinci tashabbus yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan. Uchinchi tashabbus aholi va yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan. To‘rtinchi tashabbus yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo‘naltirilgan. Besinchi tashabbus xotin-qizlarni ish bilan ta’minalash masalalarini nazarda tutadi.

Ma’naviy merosimiz hisoblangan epik rivoyatlarda, jumladan, «Avesto», «Go’ro’g’li», «Alpomish» dostonlari, Firdavsiyning «Shohnoma», Maxmud Qoshg’ariyning «Devonu lug’atit-turk», va qator boshqa asarlarda ajdodlarimizning vatanni, xalqni sevish, or-nomus va do’starliga sadoqat kabi sifatlariga ularning asosiy ijtimoiy xislatlari deb qaralgan.

Zardushtiylik ta'limoti talablariga: o'g'rilik va birovning mulkiga xiyonat qilmaslik, ayollarga, ayniqsa homiladorlarga g'amxo'rlik qilish, er sug'orish, daraxt ekish, o'z vaqtida uylanish va bolalarga g'amxo'rlik qilish kabi masalalar kiradi. «Avesto» da yana yer, suv va havo muqaddas hisoblanib, ularga hurmat va ehtiromda bo'lishga da'vat etilgan.

Sharq ilk jonlanish davri (9–11 asrlar) Abu Rayxon Beruniy: «Barcha illatlarning asosiy sababi bilimsizlikda», - degan ekanlar. Abu Ali ibn Sino: «Haqiqatni bilish uchun bilimga ega bo'lishi kerak, lekin har qanday bilim ham haqiqatga olib kelavermaydi. O'z bilimining haqiqiyligini bilish uchun mantiqni bilish zarur», - deganlar. O'rta asrlar Markaziy Osiyo allomalari va 19 – asrdagi jadidlar harakati namoyondalari ham kishining insoniy sifatlariga alohida to'xtalib, komil inson siymosining asosiy belgilari (xislatlari) ni ko'rsatganlar.

Shunday qilib, bu davrda yashagan mutafakkir olim, shoir va donishmandlarning asarlarida, ijtimoiy taraqqiyot uchun muhim bo'lган insoniy sifatlar – insonparvarlik, bilimga e'tiqod, xalq manfaatini himoya qilish, ma'naviyatni yuksaltirish, komil inson va yetuk jamoaga erishish kabi masalalar yoritilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak tarbiya o'z mazmun mohiyatiga ko'ra ijtimoiy – pedagog hodisa sifatida tarixiy, ma'naviy – ma'rifiy tajriba bilan xulq – odob me'yordi, axloqiy – huquqiy qoidalar hamda ma'naviy qadriyatlar avloddan avlodga o'tib kelishiga xizmat qiladi va shunday bo'lib qoladi. U odamni inson va shaxs bo'lib shakllanishini, uni ijtimoiylashuvini ro'yobga chiqaradigan hamda taminlaydigan omil hisoblanadi.

Shu bois tarbiya, barcha tarixiy – ijtimoiy taraqqiyot bosqichlarida jamiyat, oila, muayyan guruh va jamoalar uchun yoshlarni hayotga tayyorlash, ularni mehnatsevar, insonparvar, vatanparvar qilib o'stirishning muhim quroli hisoblangan va shunday bo'lib qolmaqda

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlari. Boshlang'ich ta'lim —Ta'lim taraqqiyotill jurnali, Toshkent —Sharql, 1999, 7 - soni
2. Levenberg L.Sh. va boshqlar. —Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi Toshkent —O'qituvchi
3. Bikbaeva N.U. va boshqalar. —Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi Toshkent —O'qituvchill 1996 yil.
4. Skatkina A.A. —Metodika prepodaveniya matematiki v sredney shkole.ll Moskva —Prosvesheniell.
5. "Inequalites. Theorems, Techniques and Selected problems" (Zdravko Cvetkovski).